

NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA INGLIZ TILINI KASBGA YO'NALTIRILGAN HOLDA O'QITISH

M. Abdujabborova¹

Annotatsiya:

Mazkur maqolada nofilologik yo'nalishlarda tahsil oluvchi talabalarga ingliz tili o'rgatishda samarali usullari, sodda tilda o'rgatish va o'rganish ESP (English for specific purposes), ya'ni ingliz tilini maqsadli o'qitish va uning ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: omil, visual tasvirlar, filolog, Mendeleyev jadvali, ESP (English for specific purposes- maqsadga yo'naltirilgan ingliz tili).

doi: <https://doi.org/10.2024/d8tspv43>

Hozirgi kunda chet tilliga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Har bir soha vakillari o'z kasbining ustasi bo'lishi uchun chet tillarini o'rganishi katta ahamiyat kasb etadi. Ingliz tili ham chet tili sifatida bizning yurtimizda ham katta mavqega ega bo'ldi. Ingliz tilini faqatgina tilshunoslar va soha vakillari umumiy maqsadlarda EGP (English for general purposes) emas, boshqa soha vakillari ham o'z yo'nalishlarini kelajakda rivojlantirish uchun ESP (English for special purposes) zamon talabi qilib qo'yilmoqda.

Ingliz tilini o'rganishga kelganda o'rgatish kerak bo'lgan eng muhim narsa bu asosiy til ko'nikmalarida mustahkam poydevor yaratishdir: o'qish, yozish, tinglash va gapirish. Ushbu ko'nikmalar o'zaro bog'liq va samarali muloqot uchun zarurdir. Bundan tashqari, grammatika lug'at va talaffuzga e'tibor qaratish o'zini to'g'ri tushunish va ifodalash uchun juda muhimdir. Amaliyotda asl materiallar bilan tanishish va interaktiv tadbirlar orqali kuchli til ko'nikmalarini shakllantirish ingliz tilini bilishga katta hissa qo'shadi. Lekin filolog bo'lmagan talabalarga qo'llanilishi kerak bo'lgan usullar filologlarnikidan farqli o'laroq ingliz tilini o'rgatishda ularning o'ziga xos ehtiyojlari va o'rganish uslublarini hisobga olish muhim rol o'ynaydi:

1. Avvalo, tilni o'rgatishdan oldin ushbu tilni o'rganish va o'rgatishga sabab bo'ladigan omillarni ta'kidlab o'tish orqali talabalarda ushbu fanga bo'lgan qiziqishini orttishiga sabab bo'la olishi mumkin. Kerakli hamda ilmiy bo'lgan bo'lgan ma'lumotlarning eng ko'pi ingliz tili deya ta'kidlangan.

2. Tilning soddaroq, tushunsa bo'ladigan qismlarga ajratilishi va aniq tushuntirilishi, visual tasvirlar va misollardan foydalanilishi kerak. O'rganuvchilarning qiziqishini yo'qolishiga sabab bo'ladigan omillardan biri materiallarning murakkabligi va bu orqali talabaning fanni mukammal darajada o'rganishiga to'sqinlik qilib, ishonchsizlik yuzaga kelishi mumkin.

3. Amaliy tilga e'tibor qaratish: nofilolog talabalarga kundalik hayotda kerakli va foydali bo'ladigan tilni o'rgatilsa, talabalar o'rgatilgan bilimlarni amaliyotda sinab ko'rib, kerakli deb topadilar.

¹*Abdujabborova Marg'uba Maxammadjon qizi, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi*

4. Multimedia resurslaridan foydalanish: Dars davomida multimedia resurslaridan foydalanish, darsga qiziquvchan talabalarning sonini ortishiga sabab bo'ladi.

5. Guruh bo'lib ishlash: bu orqali talabalar mashg'ulot davomida bir-birlarini tinglash bilan birgalikda, faqatgina o'z manfaatlari uchun emas jamoa uchun ishlashni boshlaydilar. Mashg'ulot davomida kerakli bilimlarni ulashadilar hamda egoizmni oldini olishga yordam beradi.

6. Haqiqiy hayot kontekstini taqdim etish: talabalarni hayotdagi vaziyatlarni taqlid qiladigan faoliyat va suhbatlarga jalb qilish orqali esa o'rganuvchida ingliz tilini amaliyotda qo'llashga yo'nalish so'rash, restoranda taom buyurtma qilish yoki oddiy suhbatlarni tushunishga yordam beradi.

Bir olimning fikriga qiziqadigan bo'lsak, "ESP- bu maxsus maqsadli til o'rgatishning umumiy toifasining alohida holati", -deb ta'kidlaydi Peter Strevens (1988). Strevens ESPni uning mutlaq va o'zgaruvchan xususiyatlarini ko'rsatish orqali aniqlab berdi. Strevens (1988) ESPning o'ziga xos to'rtta xususiyatini ko'rsatib o'tdi":

1. O'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan talablar
2. Ingliz tili o'qitish mazmunining muayyan fan, kasb va ixtisosliklar bilan bog'liqligi (integratsiyasi)
3. Leksika, grammatika va talaffuzni o'rgatishda ushbu faoliyatga mos keladigan til va nutq mashqlarini tahlil qilishga qaratilganligi
4. Maxsus maqsadlarda ingliz tilini o'qitish umumiy maqsadlarda ingliz tilini o'qitishdan farq qilishi. Biroq so'ngi o'ttiz yilliklarda keng chet tillar o'qitishga bo'lgan yondashuvlar ESP yondashuvida "kimni o'qitamiz?, nimani o'qitamiz? Va qanday o'qitamiz?" degan tushunchalarda jiddiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. ESP bo'yicha 1997-yilda Yaponiya konferensiyasida Tony Dudley-Evans o'zgartirilgan ta'rifni taklif qildi:

1. ESP o'rganuvchining o'ziga xos talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltirilgan

2. ESP o'zi xizmat qiladigan fanning asosiy metodologiyasi va faoliyatidan foydalanadi

3. ESP ushbu faoliyatga mos til (grammatika, leksika) va nutq faoliyatlarini o'rgatishga qaratilgan.

Shunday qilib, ESPni o'qitishda quyidagi o'zgaruvchan xususiyatlar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Fanni chuqur o'rganiladigan bo'lsa, har qanday manbadan (texnika, ijtimoiy fanlar va tabiiy fanlarga oid) foydalansa bo'lsa bo'ladi, lekin bu fan haqida o'rganuvchida yetarli ma'lumot bo'lmasa qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Nofilologlarni fanga qiziqtirish uchun esa o'sha soha vakillarining kasbiga faniga oid materiallardan foydalanilsa ya'ni (ESP) maqsadli tarzda o'qitilsa ancha manfaatli bo'ladi. Misol uchun, kimyo yo'nalishida tahsil oluvchi talabaga oila yoki sayohat haqida emas, Mendeleyev jadvali, moddalar almashinuvi haqida ingliz tilida dars o'tilsa, ularda qiziqish uyg'onadi.

Xulosa qilib aytganda, filologiya yo'nalishida tahsil olmaydigan talabalarga ko'p emas, kerakli bilim berilsa har tomonlama qulay va oson bo'ladi. Chunki ular bu sohada ma'lum bir miqdorda qiyinchilik sezishlari, grammatika va lug'atlar o'rganishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan usullardan foydalanilsa, o'z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Anthony, L. *Defining English for specific purposes and the role of the ESP practitioner*. 1997. p5
- [2]. Allwright, R. 1962. "Perceiving and pursuing learner's needs" in M.Geddes and G.Sturtridge (eds.) *Individualisation*. Oxford: Modern Language Publications, 24-31.
- [3]. *Exploration in Applied Linguistics* H.Windowson 1979.Oxford University Press
- [4]. *English for specific purposes*. 1987. Cambridge University Press
- [5]. Jamol Jalolov *Chet tilini o'qitish metodikasi*